IRFAN
AKADEMIYASI
ILM • TA'LIM • TARAQQIYOT

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

TABIIY FANLAR

va barqaror rivojlanish:

zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va amaliy yechimlar

OKTABR | TOSHKENT O'ZBEKISTON

- Biologiya va biotexnologiya
- Kimyo va kimyoviy texnologiyalar
- Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi
- Geografiya va geologiya
- Tibbiy-biologik tadqiqotlar
- Qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslardan foydalanish

Ilm – barqaror kelajak garovi

EPILEPSIYANING KLINIK BELGILARI VA ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA USULLARI

Majidova Merojxon Ahliddin qizi

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,

Farmatsiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

e-mail: merojxonmajidova@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.23356099

Annotatsiya. Ushbu tezisda epilepsiyaning asosiy klinik belgilari va zamonaviy diagnostika usullari tahlil qilindi. Xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar asosida fokal va generalizatsiyalangan tutqanoqlarning klinik xususiyatlari ko‘rib chiqildi. Epilepsiya diagnostikasida klinik anamnez, nevrologik tekshiruv, elektroensefalografiya (EEG), magnit-rezonans tomografiya (MRT) va kompyuter tomografiyasining (KT) diagnostik ahamiyati baholandi. Tahlil natijalariga ko‘ra, epilepsiyani aniqlashda klinik va instrumental tekshiruv natijalarini kompleks baholash muhimligi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: epilepsiya, epileptik tutqanoq, fokal tutqanoq, generalizatsiyalangan tutqanoq, diagnostika, elektroensefalografiya, EEG, magnit-rezonans tomografiya, MRT.

Kirish. Epilepsiya keng tarqalgan surunkali nevrologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Uning klinik belgilari tutqanoq turi va patologik elektr faollikning miya sohalarida tarqalishiga qarab farqlanishi aniqlangan. Klinik ko‘rinishlarning xilma-xilligi epileptik tutqanoqlarni boshqa paroksizmal holatlardan farqlashni murakkablashtiradi. Shu sababli epilepsiyani aniqlashda klinik anamnez bilan bir qatorda elektroensefalografiya (EEG) va neyrovizualizatsiya usullaridan kompleks foydalanish zarur. Zamonaviy diagnostik yondashuvlarni tahlil qilish epilepsiyani erta va aniq aniqlash hamda tutqanoq turini to‘g‘ri baholash uchun muhim hisoblanadi.


Tadqiqot maqsadi. Epilepsiyaning asosiy klinik belgilarini va zamonaviy diagnostika usullarining kasallikni aniqlashdagi ahamiyatini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot adabiyotlar sharhi asosida olib borildi.

Epilepsiyaning klinik belgilari va diagnostikasi bo‘yicha xalqaro hamda o‘zbek ilmiy manbalari tahlil qilindi. Xalqaro manbalar sifatida International League Against Epilepsy (ILAE)ning epileptik tutqanoqlar tasnifiga oid zamonaviy tavsiyalari va National Institute for Health and Care Excellence (NICE)ning epilepsiyani diagnostika qilish bo‘yicha NG217 klinik qo‘llanmasidan foydalanildi. Mahalliy manbalar Z. Ibodullayev “Umumiy nevrologiya”va O. Eshonov, S. Rasulovning “Nevrologiya va neyroxirurgiya asoslari” manbalarigi tegishli ma’lumotlar tahlil qilindi. Manbalardagi ma’lumotlar klinik belgilar, EEG va neyrovizualizatsiya usullarining diagnostik ahamiyati qiyosiy tahlil qilindi.

Natijalar. Tahlil qilingan manbalarda epileptik tutqanoqlarning klinik ko‘rinishi patologik elektr faollikning boshlanish sohasi va tarqalishiga bog‘liqligi ko‘rsatildi. Fokal tutqanoqlarda harakat, sezgi, nutq va ong bilan bog‘liq o‘zgarishlar kuzatilishi aniqlandi. Generalizatsiyalangan tutqanoqlarda tonik-klonik, absans, mioklonik, tonik va atonik klinik belgilar qayd etildi. Absans tutqanoqlarida qisqa muddatli ong buzilishi kuzatilishi va bu holat, ayniqsa bolalarda, diqqatning chalg‘ishi bilan adashtirilishi mumkinligi ko‘rsatildi. Diagnostik ma’lumotlar tahlilida epilepsiya tashxisi faqat bitta instrumental tekshiruv natijasiga asoslanmasligi aniqlandi. Klinik anamnez, tutqanoqning tavsifi va nevrologik tekshiruv birlamchi baholashning asosini tashkil etadi. EEGning epileptiform faollikni aniqlash va tutqanoq turini baholashda muhim diagnostik usul hisoblanadi. Biroq normal EEG natijasi epilepsiyani istisno qilmaydi.

EEGning diagnostik imkoniyatlarini miqdoriy baholash maqsadida Bouma va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil natijalari ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda birinchi sababsiz tutqanoqdan keyingi rutin EEGning sezgirligi kattalarda 17,3%, bolalarda 57,8% ni tashkil etgan. Spetsifiklik esa kattalarda 94,7%, bolalarda 69,6% bo‘lgan (1-rasm).



1-rasm. Birinchi sababsiz tutqanoqdan keyingi rutin EEGning diagnostik ko‘rsatkichlari

Mazkur natijalar rutin EEGning diagnostik ko‘rsatkichlari yosh guruhlariga qarab farqlanishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, EEG sezgirligining cheklanganligi normal EEG natijasi epilepsiyani mustaqil ravishda inkor etish uchun yetarli emasligini asoslaydi.

Neyrovizualizatsiya usullari tahlilida magnit-rezonans tomografiya (MRT) epilepsiyaning strukturaviy sabablarini aniqlashda muhim usul ekanligi ko‘rsatildi. MRT miya tuzilishidagi patologik o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Kompyuter tomografiyasi (KT) esa MRT o‘tkazish imkoni bo‘lmagan yoki o‘tkir strukturaviy patologiyaga shubha qilingan holatlarda qo‘llanadi. Tahlil natijalari epilepsiya diagnostikasida klinik baholash, EEG va neyrovizualizatsiya natijalarini kompleks baholash zarurligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Epilepsiyaning klinik ko‘rinishlari tutqanoq turi va patologik elektr faollikning miya sohalarida tarqalishiga bog‘liq holda turlicha namoyon bo‘lishi aniqlandi. Kasallik diagnostikasida klinik anamnez va nevrologik baholash birlamchi ahamiyatga ega

bo‘lib, elektroensefalografiya (EEG) hamda neyrovizualizatsiya usullari tashxisni aniqlashtirish imkonini beradi. Normal EEG natijasi epilepsiyani istisno qilmasligi sababli, diagnostik ma’lumotlarni kompleks baholash zarur. Magnit-rezonans tomografiya (MRT) esa epilepsiyaning strukturaviy sabablarini aniqlashda muhim diagnostik usul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bouma, H. K., Labos, C., Gore, G. C., Wolfson, C., & Keezer, M. R. (2016). The diagnostic accuracy of routine electroencephalography after a first unprovoked seizure. *European Journal of Neurology*, *23*(3), 455–463.

2. National Institute for Health and Care Excellence. (2025). *Epilepsies in children, young people and adults (NICE Guideline NG217).*

3. World Health Organization. (2024). *Epilepsy.*

4. Ibodullayev, Z. (2022). *Umumiy nevrologiya*. Zamin Nashr.

5. Eshonov, O. E., & Rasulov, S. A. (n.d.). *Nevrologiya va neyroxirurgiya asoslari*. Toshkent.